

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK TEXNALOGIYA INSTITUTI**

**“ENGIL SANOAT TEXNALOGIYASI” FAKULTETI**

**“Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi” KAFEDRASI**

**“KOSTYUM TARIXI” FANIDAN**

# **KURS ISHI**

**Mavzu: O`rta Osiyo antik davrni san`ati va kostyumi**

**Bajardi: “Dizayn (Kostyum)” yo`nalishi 2 kurs 2u-15 guruh  
Talabasi Yusupov Dilshod**

**Ilmiy raxbar: Baxromov Ulug`bek**

NAMANGAN -2016

# **O`rta Osiyo antik davrni san`ati va kostyumi**

## **Reja:**

### **I. KIRISH**

### **II. ASOSIY QISM**

- 1.O`rta Osiyo antik davrda milliy an`analar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va estetik shakllari.
- 2.O`zbek kashtachiligi tarixi, naqsh turlari va milliy naqshlarning ramziy ma`nosi.
- 3.O`rata Osiyo antik davrida zardo`zlikdagi milliy ornamentlar va ularning zamonaviy ko`ylakda qo`llanishi

### **III. Xulosa**

## I. Kirish.

Zamonaviy moda yo`nalishini, milliy kiyimlarda qo`llanishi, yangi ishlab chiqarishlar va ularning faoliyati, yutuqlari asos qilib olinadi. Yangi tikuv jihozlari, uskunalari, ularning afzalliklari, yangi gazlamalar, ularning qo`llanishi haqidagi ma`lumotlar ham hisobga olinadi. Odam gavda tuzilishini o`rganish va kiyim tayyorlashda anatomiya, morfologiya, plastik anatomiya fanlarini mukammal o`rganish, gavdadan o`lchov olish texnikasini aniq bilish, turli kiyimlar asosiy andaza chizmalarini chiqarishda tahlil qila bilish, ijodiy va amaliy yondoshish, kiyim eskizlarini tasavvur qila olish, chizmalarini aniq, toza, tartibli bajarish, texnik modellashtirishga qo`yilgan talablarni mukammal egallash asos qilib olinadi. Model tanlashda, avvalo gazlamani tanlash, so`ng odam qiyofasiga moslash, uning yoshi va kiyinish madaniyatiga qarab qo`llash mahoratini egallashi lozim.

“Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkilqilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma`naviy jihatdan barkamolyetuk rivojlangan insonni tarbiyalash, ta`lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg`onish g`oyasini ro`yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo`lib qoladi.”(I.A.Karimov).[1]

Hozirgi kunda boshqa iste`mol mahsulotlari kabi, kiyimga nisbatan yanada yuqori talabar qo`yilmoqda. Kiyimlarni loyihalash jarayonida ishlab chiqilayotgan kiyimning zamonaviyligi, shakli, detallari, ularning mutanosibliigi, bezaklari hamda buyum chizmasini chizishda foydalaniladigan hisoblash formulalari, kiyimning tayyor hol-da kerakli shaklini ta`minlovchi detallarning grafik usullari yordamida qurish nazarda tutiladi.

O`zbekiston respublikasidagi kichik tikuvchilik korxonalari, qo`shma korxonalar vayakka buyurtma asosidagi tikuvchilik korxonalari eng ite`olchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarilmoqda. Bu sohanirivojlantirishda xizmat qiluvchi kichik mutaxasislarni kasb-hunar kollejlari tayyorlanadi. Ularga maxsus

fan sifatida”Tikuv buyumlarini loyihalash,modellash va badiiy bezash”fani o’rgatadi.Kiyimning asosiy andazalarini tayyorlash,modellar yaratish,asosiy andazalardan model andazalarini chiqarish va unga bezklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir. Loyihalash-bu murakkab ijodiy jarayon bo’lib, har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqarish ko’zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi,shuningdek ularni o’zaro ulab tikib, muayyan o’lchovdagiva shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari,vositalari tushuniladi. Loyihalash jarajonida buyumning hajmli detallarini tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo’ladi. Detallarning razmeri,soni va shakli ular yig’ilganda xuddi shu razmer va ko’rinihni beradi. Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o’lchov olish qoidalari va o’lchovlar asosidabuyum asos chizmasini chizish,so’ng chizmadan andaza chiqarib tayyorlash qoidalarini o’rgatiladi.Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug’ullanadi.Bular-modalar uyi,tikuvchilik korxonalarining tajriba sexlari,maxsus loyihalash idoralari,ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir .Kiyimlarnimodellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andazadan model andazasinitayyorlash yo’llari o’rgatiladi.Bunda asos chizmasiga eskiz bo’yicha model chiziqdari kiritilib,yangi model andazasi hosil qilinadi.Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib,ularni bezatish yo’llari o’rgatiladi.Bunda kiyimning assortimentiga,gazlamasiga,kiyim- ning kimga mo’ljallangaligiga qarab,bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko’rinadi. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash fanining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dastur” ga asoslanganligi, uning maqsadi va vazifasi haqida.Davlatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga o’tishida yosh avlodning tafakkurini, badiiy didi, madaniyati, ma’naviyatini o’stirishda fanning tutgan o’rni. O’zbek milliy madaniyati va iqtisodini rivojlantirishda kichik, o’rta, qo’shma korxonalarining, modalar uyi xodimlarining ijodiy faoliyatlari. Kiyimning vazifasi, kelib chiqishi va rivojlanishi, unga qo’yilgan talablar, tasnifi haqida ma’lumot.

## **II. ASOSIY QISM**

### **1. O'rta Osiyo antik davrda milliy an'analar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va estetik shakllari.**

Kiyimlarda el-elat tarixiga borib taqaladigan an'analar, ijtimoiy munosabatlar, ma'rifiy, din va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalanadi. Jamiyat turmushi iqtisodiyoti va siyosatida bo'layotgan ayrim o'zgarishlar bilan baravar kiyim shakllari ham o'zgarib boradi, unda xalqning moddiy ahvoli, kishilarning didi, go'zallik to'g'risidagi ideallari, xo'jalik yuritishning o'ziga xos jihatlari hamda oilaviy turmushning ba'zi tomonlari ham ko'zga yaqol tashlanadi.

Miloddan avvalgi 2-ming yillikning ohiri – 1-ming yillikning boshlarida Urta Osiyoda yirik kuldorlik davlatlari Baktriya, Sugd va Horazm paydo bo'lgandi.

Urta Osiyoning katta kismini miloddan avvalgi VI asrda Eron ahmoniylari, ulardan sung miloddan avvalgi 329-327 yillarda Iskandar Zulkarnayn kushinlari bosib olishi ham bu erda kuldorlikning yanada rivvojlanishiga ta'sir etgan. Miloddan avvalgi III sar urtalarida Urta Osiyoning garbiy yirik kuldorlik davlati – Parfiya vujudga kelgan. Ko'pgina yozma manbalarga ko'ra hatto Rim imperiyasining ham havfli rakibiiga aylangan.[2]

Urta Osiyoda oramiy, yunon, forsiy yozuvlari keng tarkalgan. Ular moddiy va ma'naviy madaaniyatning keyingi ravnakiga bekiyoss ta'sir kursatdi.

Shu davrga ta'lukli rasmlarda va haykallarda er va unumdorlik hudosi Anahita, otliklaar, hayvonlar, hayolik mahluklarshakl-shamoyillarni ko'ramiz. Afrosiyob topilmaalari orasida chakmon, uzun kunjli etik, uchli bosh kiyim kiygan, buyniga kimmatbaho ma'danlardan bezaklar osib olgan haaykalchalar dikkatimizni tortadi. Kadimda zarb etilgan tangalar, idish tovoqlar, kurol aslahaalaargaa tushiriilgaan rasmlarda tabiat manzaralarini, odam va hayvonlar tasvirini ko'ramiz.

Ayritomdan topilgan yodgorliklarga ko'ra Urta Osiyoda musiqa san'atitarakkiy topgan.

Urta Osiyo va Eron halqlarining kadimgi madaniy mezosining asl durdonalaridan biri bu mukaddas «Avesto» kitobidir. «Avesto» zardushtiylik dinining mukaddas kitobi bo`lib, bu din kurtaklari



### **1- rasm. Qadimiy Urta Osiyo erkaklar va ayollar kostyumi**

Zardushtiylik kuldorlik ilk feodalizm davrida Urta Osiyoda asosiy diniy e'tikod sifatida keng tarkalgan. Zardushtiylik bu uulkalarda islom dini joriy etilgan ilk davrlarda ham bir necha yillar saklanib kolgan. «Avesto» nafakat diniy kitob, balki ko`p mamlakatlarning uzoq asrlardagi tarihi, ijtimoiy-iktisodiy hayoti, tili, yozuvi, badiiy madaaniyatini urganishga ham buyuk manbadir.

Zardushtiylik mohiyati – ezgulik va yovuzlik (yahshilik va yommonlik) urtasidagi qarama-qarshiliikka asoslangan.

Qadimiy Urta Osiyo san'at yodgorliklari antik davri kiyimlariining turlari bilan tanishishga boy imkoniyat beradi.

Yunon muarrihi Gerodotning ma'lumoti buyicha, hamma kadiladagi odamlar, hattoqi erkaklar ham, kiyimsiz yurishni uyatli deb hisoblashaardi.

**Ayollar kostyumi.** Ayollar kostyumi yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo`lgandi. Ular ichki va ustki: yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlardan iborat edi.

Ayollar kuylagining ikki turi uchrardi. Birinchisi – tunukasimon bichimlikukraagi tagida va belida belbog bilan boglangan tugri ko`ylak edi. Uning yoqa umizi dumaloq bo`lgan, oldi esa tomchisimon kesimli edi. Ko`ylakning ikkinchi turi yunon hitoniga uhash edi. Buy baravar mato parchasini elkada tugnogich bilan biriktirishardi, etagining yon burchaklarini tugunga boglab kuyishardi. Bu ko`ylak belida yoki kukragini tagidan belbog bilan boglanardi.

Ustki kiyimlari skifsimon kaftanlar va yopinchoqlar bo`lgan. Ko`ylak yoki kaftan ustidan yopinchoq kiyishardi. Ular buy baravar tugri turtburchak matodan qiliniib, elkaga tashlanardi, old uchlari esa tugnogich bilan biriktirilardi.

Bel kiyimi – uzun, etikka kirgizilgan ishtonlar edi. Ular ko`ylakning tagidan kurinishi mumkin edi.

Bosh kiyimlari konussimon namatdaan qilingan kalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sallasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo`lgan.

Pricheskalarini murakkab va hilma-hil bo`lgan. Urilgan sochlar turli usulda turmalangandi.

Bezak takinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillakoshlar, grifna va boshqalar bo`lgan.

Oyoq kiyimlari yumshoq etik edi, gohida, kunjining tepa kismi kaytarilishi mumkin edi.

**Erkaklar kostyumi.** Ularning kiyimi ham elka va bel, ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Elka kiyimi ichki ko`ylak va ustidan kiyilardigan kaftandaan iiborat. Ularning bichimi tunukasimon, shakli tugri edi. Kiyim gavdaga sal yopishib turar edi. Uzunligi buksasidan pastroq yoki tizzagacha edi. Uzun engi tor yoki kundalang tahlamali bo`lgan, belga

belbog boglashardi. Bel kiyimi tor yoki kundalang tahlamali ishtonlardan iiborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon kolpoqlar bo`lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi kaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib Urta Osiyo antik kostyumiga skiflar, ellinlar va hindlarning ta`siri bo`lgan. Ammo Urta Osiyoliklarning kiyimlariining shaklida, kiyinish odatlarida, kiyim turlarida mahalliy odatlariga oid hususiyatlari mavjud bo`lgan va u juda keng, boy tarihga ega edi.



**2-rasm. Urta Osiyo ilk feodal kostyumlari.**

Uzbekiston hududida kuldorlik munosabatlarining ilk feodal munosabatlariga usib utishi uchun zaarur shart-sharoitlarniing etilishi III-V asrlarga tugri keladi. VI-IX asrlar davomida ilk feodal jamiyati bu hududda uzil kesil karor topdi.


V asrda Urta Osiyo va Qozog`iston hududida ishgol etib, uz davlatiinini vujudga keltirgan hunn kabilalaridan iborat eftalitlar hukmronligi davrida feodal munosabatlari ancha rivoj topgan. Eftalitlar bilan Eron sosoniylari uzoq vakt urish olib bordilar. Eftalitlar zarb etgan tangalar savdo-sotik muomalasida muhim rol uynaydi. Ular mahalliy aholi



bilan tobora aralashib, utroq hayot kechira boshlaydilar. Bu davrda bir qator shaharlar bunyod bo`lib, savdo-sotik kengayadi. SHaharlarda yirik karvonsaroylaar, shinam uy joylar va ibodathonalar kad kutaradi.

V asrning saksoninichi yillariga kelib Turk shoqonligi sharqiy va g`arbiy qismlarga ajralib ketdi. Bunday vaziyatdan arab istilochilari foydalanib qoldilar.

VII boshlarida Arabiston ijtimoiy-siyosiy kuchlari yangi din – islom goyasi bayrogi ostida kiska muddat ichida uz mavkellarini mustahkamladilar. Butun Arabiston, Old Osiyo, Eron hududlari arablar tomonidan bosib olinib, u yerlardagi halqlar majburan islom diniga buysundirildi.



### **3-rasm. VII -VIII asrlardagi Urta Osiyo halqlari kostyumi bichimi.**

VIII asr boshlaridan e`tiboran arab boskinchilarining asosiy dikkati Urta Osiyo erlariga karatildi, va bu erlarni ishgol kildilar.

Urta Osiyoga islom dinining yoyilishi hamda u bilan bog`liq bo`lgan diniy rasm-rusumlar, shariat va tarikat qonun-koidalarida, akidalarining tarkib topib borishi, mahalliy

halq namoyandalari muayyan ijobiy rol uynadi. Odamlar haar-hil hudolar, chiltonlar, mukaddas sanalgan narsalarga siginishdan holos bo`lib, yakkayu yagona Oллоh taologa, uning rasuli Muhammad alayhissalom kursatmalariga e'tikod ila amal kiladigaan buldilar.

Urta Osiyo gazmol markazlarida «zandanachi» kabi kuk rangli ipak va boshqa matolarning ishlab chikarilishi yopishtirma yassi, gilof kiyimlarning paydo bo`liishiga olib keldi. Kiyimning kompozitsion markazi mato bo`lgandi.

Ilk o`rta asr kostyumida o`z manbalari bor edi. Kushon, eftalit, sosoniy, turk, hind, eron ta`sirlari bilan mahalliy meros ma`lum darajada umumiy uslub yaratgandi. Bu davrda estetik ideallari badiiy uslubga mos bo`lgandi.

V asr erkaklari kuchli, bakaloq, yumaloq yuzli, bodomsimon kuzli, kalta kirkilgan sochli, soqolsiz tasvirlangan. Ularning kiyimi otga minib yurishga mos bo`lib, kuyidagilardan iborat edi: kalta kaftan va ko`ylaklar, keng ishtonlar va baland kunjli etiklar. Elka kiyimida trapetsiya shaklli tunukasimon bichim yon kiyiklar yordamida hosil kinadi. Ishton bichimi uch bulakdan, ikkita poycha va bitta ogdan iborat edi.

Bu davrda ideal ayol gavdasini magrur turardi. U tuludan kelgan, keng yuzli, nazoqatli, koshlari yoysimon, tugri fark qilib ochilgan sillik uzun sochli, tugri burunli, kichkina ogizli, nozik kulli bo`lgandi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimi kompleksiga uhshash edi: ko`ylaklar kaftanlar, bir tomonlama kaytarmali yopinchoqlar va ishtonlar edi.

Ulardan tashkari shlefli uzun ko`ylak, kofta, yubka va pustinlar ham kiyishardi. Ustki kiyimlarning uzunligi tizzagacha bo`lgandi. Elka kiyimining yoqasi, etagi, oldi, engning uchi boshqa rangli matodan qilingan hoshiya bilan bezatilardi.

VI-VII asrlarda erkaklarning estetik idealii o`zgargandi. Ko`pol kuchning urniga akl va noziklik kelgandi. Ideal erkakning beli ingichka uzunroq kuli ingichka bilaguzuk va uzuk bilan bezatilgan bo`lishi kerak edi.

Erkak kostyumida avvalgi davrning kiyimlari qatori ikki tomonlama kaytarmali turk

kaftanlari keng tarkalgandi kaftan gavdaga yopishib turardi, uzunliigi esa buksagacha bo`lib, yon kesimi bulmagandi. Dekrativ mato bilan fakat yoqasi va eng uchi bezatiilardi. Ustki kiyim – yopinchoq ham ikki tomonlama kaytarmalii bo`lgan. Bu davrda etiklari ham nozik bo`lgan.

VI-VII asrlarda ayollarda ham erkaklardagidek estetik timsol o`zgargandi. Uning tashqi kurinishi nozik belli yuzi ham nozik ayol edi. Kiyimning yangi chegaralari esa yangi idealda yangi plastik siymoni yaratgandi. Bunday o`zgarishlar kirishiga kosmetikaning ham uz urni bor edi. Ayollarning kiyimi bu davrda ham erkaklar kiyimidan uncha fark kilmasdi. Ulardan tashkari ayollar kiyimi ansanbilida nimchalar, koftalar tugri shaklli yubkalar va uzun ko`ylaklar ham kirib keldi.

VII asrning ohirida VIII asrning boshlarida Urta Osiyo halqlari kostyumining bichimi murakkablashdi. Endi tanaga yopishib turishga kulaylik beradigan, kullarni bemalol harakat qilishga imkon beradigan utkazma engli kiyimlar paydo buldi. Lekin hali ham kaftan va yopinchoqlar bezagida kushonlar tunukasimon kuylagining bezaklarining ta`siri sezilib turardi. YOpinchoqlarda rang barang matodan qilingan hoshiyali kiyiklar paydo bo`lgan. Ularnig etaklari va yoqalaarning bezaklari ham o`zgargandi.



#### **4-rasm. VII asrning ohirida VIII asrning boshlaridagi Urta Osiyo erkaklari kostyumi**

Kiyimlarning uzunligi endi tizzadan pastda joylashgan tunukasimon bichimli kiyimlarga ham o`zgartirish kiritilgan edi: endi englari elkadan sal pastroqda tikilardi va elka choqlari dekarativ mato bilan bezatilgandi.

**Urta Osiyo kech urta asr kostyumlari.** Arablar istilosidan keyin Urta Osiyoda (IX-XII asrlar) feodal munosabatlar yanada mustahkam negizda karor topa boshladi. IX-XII asrlarda Urta Osiyoda fan va madaniyat bobida shu kadar ajoyib fan kashfiyotlari va tadqiqotlari yaratildiiki, bu utmish ajdodlarimizning jahon madaniyati hazinasiga kushgan bebaho hisasigina bo`lib kolmasdan, ularning dahosi va akl zakovatini yuksakligini bugungi davrgacha ham kurib urganib kelmoqdamiz.

Urta Osiyo kech Urta asr davrining miniaturachi rassomlari san`atda boy meros qoldirgan edilar. Kamoliddin Behzod, Muhammad CHagriy, Muassin, Abdullo, Muhammad Murod Samarkandiy kabi rassomlar shu davrdagi aholining barcha tabakalarini, turmush tarzini, tashqi kurinishi, kiyishgan liboslarini yuksak mahorat bilaan tasvirlashgan. Miniaturalarga ko`ra, Urta Osiyo kiymida asosan sidirga oq, zangori, binafsha, kul va jigar ranglar ko`proq ishlatilgandi. Nakshli matolar juda kam kullangandi, yul-yul matolar esa asosan hind va eronlarniiki edi.



**5-rasm. VII - VIII asrdagi Urta Osiyo ayollari kostyumi**

**Erkaklar kostyumi.** Erkaklar libosi ustki va ichki, elka va bel kiyimlardan iborat edi.

Ustki elka kiyimlari turli chopon va chakmonlarda iborat edi. Eng keng tarkalgan kiyim oldi ochik chapon edi. Choponning bichimi bir hil tunukasimon bo`lib, detallari, bezaklari, matosi va kiyish usuli bilan bir biridan farklanardi. Oldji ochik kiyimlar kalta, uzun engli yokii engsiz bo`lgan. Ular tunukasimon bichimli bo`lgan holda orqa bulagining urtasida yoqa umizidan belgacha vitochka kiliinardi va shuning yordamida kiyim gavgaga yopishib turardi. Odam harakatga kulay bo`lishi uchun yon choqlarning pastidan kesib qoldirilardi. Choponlar kaytarma, tik yoqali yoki yoqasiz bulardi. Yoqalar va kaytarmalar

boshqa rangli matodan qilinardi. Aslzodalarning kiyimida muyna yoqalar ham uchrardi. Yoqalarning shakli asosan trapetsiyasiomn bo`lgan.

Choponlar astarli edi. Astarining matosi va uning rangi boshqa bulardi. Muyna astarli, muyna shol yoqali, buyi va engi juda uzun chopon «faradji» deb atalardi.

Ko`pincha choponlar izma va tugmalaar yoki bogichlar yordamida tugmalanardi. Tugmalar asosan boylarning kiyimida uchragan va bu kiyim turida XIX asrda yukolgan.



### **6-rasm. XV asr Urta Osiyo erkaklari kostyumi**

Uzun engli choponlar ko`pincha belbogsiz kiyilardi. Ishlagan paytda va dafn marosimida belbogni albatta boglab yurishardi.

Kalta engli chopon «koba» ning bir necha turi uchragan eng uzunliigii bilagining urtasigacha bo`lsa chopon etagi kengaytirilib ziyiga kavilgan magz qilishardi. XV asrda shu turdagi choponda belidan pastgacha ikki yon kesimi bo`lgan va ba`zan orqasida ham kesim uchragan.

Bu davrda mugillar olib kelgan engsiz keng elkali choponlar ham bo`lgan. Bu oldi ochik kiyimning turi – asimmetrik tugmalanadigan chopon «jubba» deb atalgan. Bu kiyim aslzodalarda, askarlarda, kuchmanchilarda va ba`zan shaharliklarda uchrardi. Shunisiga

e'tibor berish kerakki turklarning kiyimi ungdan chapga, mugillarniki esa chapdan ungga uralardi.

Ustki kiyimning ostidan har hil ko`ylaklar kiyishgan. Ko`pincha baravar ustma-usm ikkitasini kiyishgan. Ichki ko`ylak «perohan» yupka oq matodan, ustkisi esa «peshvoz» deb nomlangan. Ular zaangori, kuk, yashil va jigar rangli matolardan tikilardi. Ko`ylakning engi keng va uzun bo`lgan. Yoqa umizi tor, chukur, ovalsimon, yoki berk, kornigacha vertikal kesimi bo`liishi mumkin edi. Yoqa umizining ziyiga kaviigan hoshiya qilishgan, ba'zan esa uni tugmalashardi.

Ustki ko`ylakning uzunligi tizzagacha bo`lgan, ichki ko`ylak esa uzunroq boldirning urtasigacha yoki tupikkacha edi. Hizmatkorlarniki tizzagacha bo`lgan.

Miniaturalarda tasvirlangan ishtonlarning bichimi ikki alohida poychadan va ogdan iborat bo`lgan. Ishton shaklining tepa tomoni kengaygan bo`lib, pastga karab toraygandi

Bosh kiyimlarning turlari har-hil bo`lgan ular: telpaklar, namatlar, sallalar va boshqalardan iborat bo`lgan.

**Ayollar kostyumi.** Miniaturadagi tasvirlarga ko`ra ayollar kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezagi erkaklarnikiga uhshash bo`lgan. Ich kiyim tunukasimon bichimli uzun engli oq ko`ylak «kurta» deb nomlangan. Ichki ko`ylak ustidan boshqa rangli, tunukasimon bichimli ko`ylak «pirohan» kiyishgan. Pirohaan uzun yoki kalta engli bo`lib, ichki kuylagidan kaltaroq (tizzagacha) edi va beliga yopishib turardi.

Ichki bel kiyimi ishton «ezor» bo`lgan. Ayollarning ustki kiyimi joma, koba, faradji, mursak, yopinchoq va kaltachadan iborat edi.

Erkaklarga nisbatan ayollar kiyimi tanaga yopishib turgani bilan kiyim, bosh kiyimlari va zargarlik buyumlari bilan farklanardi.

XVII asrning ikkinchi yarmida miniatura tasvirlarida paranji tasvirlangan. Paranji uzunligi kukrakkacha tushadigan ot kilidan yasalgan tur «chashmband» bo`lib u bilan

ayolning yuzi berkitilgan edi.

Mahalliy urf odatlar ayollar kostyumida ham sezilardi. Buhoro kiyimlari boyroq va bashangroq edi, chunki ularda chet el ta'sirlari ko'proq bo'lgan. Asrning kirkinchi yillarida Buhoro modasiga hind kostyumlarining ta'siri sezilardi – kiyimlar yopishib turib ayol gavdasini kursatardi.

Samarkand modalari oddiyroq bo'lgan. Ularning sidirga matodan tikilgan Choponlarida kashta qilinmasdi. XVI asrning boshida Samarkandda Hirot Choponlariga uhashash kiyimlarni kiyishgandi (butun temuriylar imperiyasiga tarkalgan muyna bilan sirlangan faradji).

Kari ayollarning kiyimi yoshlarnikiga nisbatan eng avval baravar kiyilgan kiyimlarning sooni bilan farqlanardi. Ular ko'pincha juda keng kalta engli, uchburchak yoqa umizli ko'ylakni kiyishgan. Bosh kiyimlari rumol, muyna bilan chekkasi bezatilgan duppisimon kalpoqlar, peshonabandlar va boshqalar bo'lgan. Sochlari harakat kilganda oldiga tushmasligi uchun rumol ostidan boshga soch popuk «kulyuta» yoki «chochkak» kiyishardi. Malikalar, honlarning hotinlari, hon avlodlari toj kiyishardi.

XVI asrda Buhoro ayollari zar ipli doqa rumolning ustidan tillakosh takishgan. Yozuv ma'lumotlari buyicha va tasvirlarga karaganda zargarlik buyumlari kuyidagicha bo'lgan: zebigardon, haykal, tumorlar, ziraklar, uzuklar, bilaguzuklar, buloglar.

Ayollar kostyumini oyoq kiyim yakunlaydi miniaturalarda yosh ayollar va kizlar etik «mahsi», nim etik «nim-chakmi» baland kunjli poshnali etik «chakmi» va charm tufli «kavush» tasvirlangan.

**XIX asrning birinchi yarmidagi uzbek kostyumlari.** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Uzbekiston tukimachilik san'ati va dekarativ amaliy san'ati ham keng rivojlangan edi. An'anaviy uzbek shoyilari (kaunas, shoyi, hon atlas), nimshoyilar (bekasam, banoras, parpasha, adras) Buhoro, Samarkand, Namangan va boshqa




shaharlarda ishlab chikilardi. Bu gazmmollarni Urta Osiyo aslzodalari kiyishardi. Kambagal aholining kiyimi asosan ip matolardan (buz, olacha, susi, janda) bulardi.

Urta Osiyoni chor Rossiyasi bosib olgandan keyin fabrikalarda ishlab chikarilgan matolar (chit, satin va boshqalar) keng tarkalgandi. Aslzodalar kiyimida Frantsiya va Rossiyada ishlab chikarilgan nakshli shoyi gazmollar – bahmallar, kimhoblar, kundalar, farangilar va atlaslaar kullanilardi. Ulardan tashkari, jun matosi hamda movut ham erkaklar ustki kiyimida ko`p ishlatilgan.

**Ayollar kiyimi.** Kadimdan ayollarning an'anaviy ichki kiyimi tunikasimon ko`ylak va lozimdan iborat edi. Ko`ylakning shakli tugri, ba'zan etagi kengaygan bo`lib, uzunligi tupigigacha edi. Kizlar kuylagida yoqa umizi kundalang qilinib, chetlari boshqa rangdagi mato yoki tasma bilan tikib chikilardi va usha matodan tayyorlangan tasma bilan boglanaardi yoki bitta tugma bilan kadab kuyilardi. Buhoro vva Samarkand viloyatlarida ayollar kiyimida yoqa umizining chetlari zarbob tasma «peshkurta» va kashta bilan bezatilgan.

Urta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandaan kkeyin tik yoqalar paydo bula boshladi ularni keyinchalik plissirofkalik «par-para» bilan bezatishadigan buldi. Turkiston ulkasida odatda vertikal kirkimli kopkoq bilan berkitilgan yoqa umizi, baaland tik yoqa kirib kela boshladi. Bu yoqani «it yoqa», «nugoy yoqa», Zarafshon vodiysida «kozoqi yoqa» deb atashardi.

XIX asrning ohirlarida kirkilgan koqetkali ko`ylak – kukrakburma ko`ylak paydo buldi.



**7-rasm. XIX asrning birinchi yarmidagi uzbek kostyumlari**

Ushbu ko`ylak keyinchalik ayollar garderobida barkaror urnashib, ayollar milliy kkostyumining asosi bo`lib qoldi. SHu davrda uzun, uchi tor engli ko`ylaklarni kiyishgan, ularga tirsak va bilag orasida ingichka, kashtalangan tasmalar kiyishgan. Bunday ko`ylaklar asosan Horazmda kayd etilgan. Horazmda kizlar va yosh ayollar ola chipor matodan tikilgan ko`ylaklarni kiyishardi.

Ayollar kostyumining ikkinchi asosiy kismi – lozimdir. Lozim beldan yukori kismidaa utkazilgan ishton bog yordamida ushlab turiladi. Ishtonning uchi tukilgan va kashta qilingan tor tasma «jiyak» bilan bezatilgan, sung uning uchlari popuk hosil qilingan.

Ayollar ustki kiyimiga kavilgan pahtali Choponlar kiyishgan ular erkaklar choponidan birmuncha farkanib, tunukasimon bichimli edi. Ayollar choponining yoqa umizlari ochik va keng bo`lgan. Ular bahyalanmagan, adipi bir-biriga kirmagandi. Horazmliklarning choponi uziga yarasha nikoharli edi. Kulda kavish urniga ular hiylagina mashinaadaa kavishgan. Bilag kismida kul uchun kesim qilinib, ish kilayotgan paytda iflos

bulmasligi va halakit bermasligi uchun kadalib kuyilardi.

Pahtali Choponlardan tashkari yozda kishloq asosan Zarafshon vodiysi ayollari, astarsiz chopon «delegay» kiyishgan. Buhoro va Samarkand viloyatlarida ustki kiyim sifatida engli, beli sal yopishib turib, pastga karab kengaygan astarli chopon «rumcha»ni kiyar edilar. Rumchanning utkazma tor englarining uzunligi bilagigacha edi.

Ayollarning mahsus ustki kiyimi bo`lgan chopon «mursak» Uzbekistonda keng tarkalgan u Toshkentda – mursak, Samarkandda munisak, kaltacha, Fargonada munisak, munsak, Buhoro va Shahrisabzda kaltacha deb ataladi.

XIX asr mobaynida mursak odatdagi bashang kiyim bo`lgan.

Rossiyadan Urta Osiyoga kiyimning yangi turi – «kamzol» (kamzur, kamzul, peshmet) kirib kela boshladi. Bu belga sal yopishib turgan, kalta va tor utkazma engli, kaytarma yoqali, yonlarida va kukragida chuntak qilingan ustki kiyim bo`lgan. SHu davrda kalta engsiz kiyim, «nimcha» (Toshkentda) va «kamzur» (Fargona vodiysida) paydo bo`lgandi. Paranji tarihi uzun va murakkabdir. Paranji suzi «faradji» suzidan kelib chikkan. SHunday qilib Urta Osiyo ayollar paranjisi kadimgi faradjidaan kelib chikib, yopinchoq sifatidaan kiyilardi. XVI asrga kelib uzun va noqulay englari dekarativv detal bo`lib qoldi. XVIII asrda esa ular asosiy vazifasinit yukotib, hakikiy englarga uzshab bichilib va tiqilib orqasida biriktirilib uzun dekarativ tasmaaga aylandi.

Uzbek ayollari kiyimini tashqil etuvchi kiyimlardan biri bosh kiyimdir. Eng ananaviy bosh kiyim kvadrat yoki tugri turtburchak rumol edi. Uni turli usullarda urash mumkin. Buhoroda katta uchburchak rumol «rido», Fargonada «kalagay», Horazmda shoyi «rumol» urashgan. Yoshlar duppi kiyishgan. Ayollar kalpogi «kulta», «kyichig»ni kiyishgan. Hon saroy ayollari va boy oilalar asosan zarduzi «kalta pushak» kiyishgan.

XX asr boshlarida kashta qilingan duppilar keng tarkala boshladi. Urta Osiyo ayollari takinchoqlarning turli hilma hilinii takishgan. Toshkent, Buhoro va Fargona vodiysida

pehonaga kiyiladigan «tillakoshlar», Horazmda «osmaduzi», Buhoro, Samarkandj va Toshkentda tilla bargak bo`lgan. Ayollar takinchoqlari ham hilma hil edi: uzuklar, bilaguzuklar, sirgalaar, buloqilar va holbindiylar; kukrak bezaklari: zebi gaardon, nozigardon, buyin tumor, kultik tumor, sinsila, tavk, hapaband, topish va boshqalar keng tarkalgandi.

Uzbekistonda XIX-XX asrlarda oyoq kiyimlar ayollarda uncha o`zgarmagan ular asosan mahsi va kavush kiyishgan. Kishda esa yogochdan yasalgan boshmoq «hakkar kovush» kiyishgan.

**Erkaklar kostyumi.** Barcha yoshdagii erkaklar kiyimi tunukasimon bo`lgan. Fargona vodiysida va Toshkentda erkaklar kiyadigan kiyim «mullavachcha»lar ko`proq kiyishgan. Fargona va Toshkent viloyatlarida ichki ko`ylak «yahtak» keng tarkalgandi.

Ichki bel kiyimi «ishton» edi. Sovuk paytda jun yoki kalin ip gazmoldan tikilgan astarli yoki astarsiz «shimni» kiyishardi. SHu bilan birga ovchilar jundan qilingan astarsiz «shalvar» kiyishardi.

O`sha davr erkaklar ustki kiyimi Choponlar astarsiz, astarli va pahtali qilinardi. Fargona vodiysida «avratun» deb nomlangan astarsiz chopon kiyilardi. Zar choponlarni asosan amrlar kiyishgan. Kishda badavlat erkaklar kavulgan chopon ustidan «chakmon», «kebanak», muynali pustin kiyishardi.

Belboglar (belkars, chorsi, kiyikcha) mahaalliy matodan kvadrat shaklida qilinib kashtalanardi. XIX asrning urtalariidan boshlab Rossiyadan kelgan «kamzol»ni shaharliklar kiyishgan. Usha davrda keng tarkalgan bosh kiyim duppi, kalpoq, kallapush va boshqalarni kiyishgan. Ruhoniylar va ayrim aslzodalar keksalar «kuloh»ni kiyishgan. Horazmda uzun muynadi kuy terisidan qilingan katta yumaloq yassi bosh kiyim «chugurma»ni kiyishgan. Kishda duppinig ustidan muynadan qilingan, astarli yumaloq bosh kiyim «telpak» kiyishgan. Sallani ip, nimjun yoki doqadan qilishardi.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi mahsi, kovush bo`lgan. «Amrikon» (amerikadan kelgan) charmdan qilingan oyoq kiyimlari kimmatbaho edi. YOzda kovushning uzini kiyishardi. Ulardan tashkari, erkaklar baland kunjli va poshnali etik kiyishgan.

Kishloqda oyoq kiyimlar oddiyroq bo`lgan: etik, «chorik» (kunjsiz oyoq kiyim), kalta etik «mukki» (poshnasiz, yumshoq va kattik teridan tikilgan) yoki «tovulduruk» (yogochdan qilingan uch oyoqli), dalada ishlaganda «hom kovush» (mol yoki ot hom terisidan ishlangan) kiyishgan.



**8-rasm. XIX asrning birinchi yarmidagi uzbek kostyumlari**

## **2. O`zbek kashtachiligi tarixi, naqsh turlari va milliy naqshlarning ramziy ma`nosi.**

Har bir o`zbek oilasida qiz bola tug`ilganidan boshlab unga sep yi`ish boshlanadi. Ushbu ma`sadda juda ko`p vaqt va mehnat talab etadigan so`zanalar kashtado`zlik usulida tikiladi. Qiz bola katta bo`lib o`zi ham ushbu so`zani tikish jarayonida ishtirok etadi.


Ona-buvilar tomonidan qizlarga kashta tikish sir-asrorlari, naqshlarning ramziy ma`nolari o`rgatiladi. har bir so`zanadagi naqsh-bu takrorlanmas san`at ijodi hisoblanadi. qadimda ayollar tabiiy paxta va ipak tolalaridan matolar to`qishgan. Tabiiy tolalarni olish uchun esa paxta va pilla etishtirishgan.







So`zanalar naʼqhidagi qushlar yangi oila barpo etish orzusini bildirgan. Pichoq va tumorlar naqshi esa-oila o`chog`ini qorongu kuchlardan va yomon nazardan asrashni bildiradi. Bundan o`zbek ayollari oilani naqadar yuksak baholashganini, baxtli va osoyishta oilaviy hayot barpo etishda oilaning muhim o`rnini sezsa bo`ladi.


Kashta iplarning ranglari tabiiy resurslardan tayyorlangan. Bo`yoq sifatida sariq rang uchun- piyoz, qizil rang uchun - anor, jigar rang uchun – yong`oq po`sti, yashil rang uchun- pista mag`zi, to`q jigar rang uchun- tut daraxti po`stlog`i ishlatilgan. qolgan ranglar ushbu yuqoridagi ranglar qorishmasidan tayyorlangan.

Zardevor, so`zana, joypo`sh, takiyapo`sh kabi qadimgi kashtachilik buyumlari Buxoro Amirligining Shofirkon, Gijduvon, Shaxrisabs, Nurato hududlarida turli naqshlarda barpo etilgan. har bir hudud aholisining kashtachilik uslubi bir-biridan farq qilgan va quyidagi nomlar bilan atalgan: o`zbek-do`zi, bigiz-do`zi, zanjir-do`zi, iroqi-do`zi, kast-do`zi, zamindo`zi va hokazlar.

Kashtachilik uchun qo`lda to`qilgan adras, bo`z, shoyi matolari tanlangan. Ushbu matolarga solingan naqsh bo`yicha xotin-qizlar ipak iplar bilan qo`lda kashta tikishgan. Bir kishi bir dona so`zana tikishi uchun o`rtacha to`rt oy vaqt sarflangan. Chiroyli va bejirim buyum tikilishi uchun juda ko`p vaqt, sabr va toqat kerak bo`lgan.

<b>№</b>	<b>Naqshning nomi</b>	<b>Ramziy ma`nosi</b>	<b>Rasmi</b>
1	Tumor	Oilani yomon ko`zlardan asrash	

1	Pichoq	Oilani yomon qora kuchlardan asrash	
2	Gul g'unchasi	Yangi oila qurish orzusi	
3	Qushlar	Tinch va osuda hayot	
4	Anor	Rizq-ro`zi va kelajak avlod ramzi	
5	Doyra	quyosh va iliqlik ramzi	
6	Bodom	Serfarzandlik ramzi	

7	Qalampir	Yomon ko`zlardan asrash	
---	----------	-------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------

### **3. O`rata Osiyo antik davrida zardo`zlikdagi milliy ornamentlar va ularning zamonaviy ko`ylakda qo`llanishi.**

Zardo`zlik san`atining eng rivojlangan ,taraqqiy etgan turi Buxoro zardo`zligidir. Zardo`zlik mahsulotlarini ishlab chiqarish Buxoro shahrida o`zining umumiy markaziga ega, jamiyatning nafis san`at shaydolariga xizmat qiladi. Zardo`zlik uzoq tarixga ega va deyarli barcha sharq mamlakatlari zardo`zlik vatani hisoblanadi. Ilgari zamonda faqat amir saroyidagilargina kiyishga haqqi bo`lgan bo`lsa hozirgi zamonda barcha xoxlovchilar bu san`at turiga mansub buyumlardan foydalana olishadi Zardo`zlikni tikish uchun tillarang va kumushrang tusdagi yassilangan tilla va kumush simlardan zariplardan shoyi, ipak iplardan zar, likkak iplardan foydalanishgan. Bulardan tashqari pilakch, nafis zar tugallar, zargarlik taqinchoqlariga o`xshab ketadigan olmos qubbalar deb atalmish bo`rtma naqshlar dur va qimmatbaho toshlardan foydalanishgan.

"Tojigul - gultoj -tavk" turunji bezab turadigan xurmobargiga uxshash shakl. Kuylakning ochik kirkimiga xoshiya gulli "islmiy" nakshlari tanlangan. Bunday xoshiya gullardan kupincha Duxoba-Butador Chophonlar xoshiyalarida keng kullanilgan. "Tojigul", "Butador" kabi butoklar kashtasi mumkin kadar real narsa deb talkin etiladi. Bunday xusxalar islmiy uslublashtirilgan nakshlarga tula yirik yirik chuzinchok doiralar, kvadratlar, xalkalar va xokazo kurinish kasb-etgan. Butador darxam kompazitsiyalari dabdabali liboslarga zeb berishda foydalanilgan, butador yuza buylab bir tekis yoyilgan, gul dastalaridan tuzidlgan bir butun naksh.



"Butador" usulida bezaklangan buyum turi. Urta Osiyoning moxir ustalari kulida bark urib gullagan Buxoro zarduzlik san`ati uzining badiiy qiymatibilan muxim urin tutadi. Necha asrlar davomida usta zarduzlar tikishning eng ajoyib yullarini topdilar va uni takomillashtirdilar. Ranglardagi nazokatni chukur xis etilgan xolda ochik rangli shoyilar zarduzlikka tatbik etila boshlandi. Milliy nakshlarning oyrim elementlari va kompozitsion tuzilishlari kiyos xayolot maxsuli ekanligi aslo sir emas. An`anaviy tulkinlarning keng miyosda kullanilishi va an`anaviy kompozitsion sxemalarning kupligiga karamay, bunda kotib kolgan andoza yoki shablondan asar xam kurmaymiz. Bular xammasi ustalarning




**11- rasm. Darxam naqshi**



**12- rasm. Tagalak naqshi**




13- rasm. Butadori naqshi



14- rasm. Islimi naqshi



Butadori daraxt naqshi



15-  
rasm.  
Doira  
naqshi  
16-  
rasm.





**17- rasm. Daukur naqshi**


Uzbekiston xalqlari madaniy merosi xazinasiga bebaxo xissa bulib kushiladigan chinakam san`at durdonalari yaratishiga imkon beruvchi kizgin ijodiy mexnatdan darak berib turibdi.

Ekologik harakatni eng muhim yo`nalishi madaniyat ekologiyasidir. Industrial stivilizastiyaning inqirozini madaniyatni global inqirozi namoyon etadi. Inqirozini barcha alomatlari bunga dalolat beradi: jamiyatda madaniyatni roli susayishi, madaniy boyliklarni standartizastiya va unifikastiyalanishi, milliy xususiyatlarni va o`ziga hoslikni yo`qotilishi, ommabop “madaniyatga qarshilikni” keng tarqalishi. Bu muammolar bilan va ularni echish yo`llarni qidirish bilan madaniyat ekologiyasi shug`ullanadi. “Madaniyat ekologiyasi” degan tushunchasini ilk bor D.S.Lixachev kiritdi. Odam zoti omon qolish uchun madaniy an`analarni saqlash va qo`llab-quvvatlashni muhimligiga jamiyatni e`tiborini qaratdi. Uning fikriga binoan “tabiiy biologik muhitni saqlash vazifani qo`yish bilan ekologiyani cheklash mumkin emas. Odam hayoti uchun avlodlar va o`zi yaratgan madaniyat yordamida muhit ham inson uchun muhim”.

Madaniyatda o'ziga xosligini saqlash, boshqani e'zozlash (chunki faqat bizdan farq qiladiganlari o'zimizni tushunishga imkon beradi) vujudga kelayotgan yangi stilizastiyani fundamental boyligidir.

Hozirgi insonning yashash muhitni yangi texnologiyalar ta'sirida zamonaviylashtirishi turmush tarzini madaniy ketma-ketligi bilan mujassamlantirmoq lozim, qayiski zamonaviy loyiha madaniyatini rivojlanishida eng muhim muammolaridan biri. Dizaynning "etnomadaniy o'xshashligini" izlanishlari baravariga ikki yo'nalishda olinib bormoqda: bir tomondan, o'zini milliy madaniyatining asoslrini anglab olishga intilish, buyum muhitda uning eng muhim arxetiplarini tiklash; ikkinchi tomondan, zamonaviy insonning buyum muhitini ma'naviy boyitadigan boshqa madaniy boyliklarga qiziqishni kuchayishi.

Hozirgi bosqichni jiddiy vazifalaridan biri - mamlakat ko'lamida milliy dizaynni tashkil etish, chunki milliy o'xshashlik imidji hozir xalqaro bozorda dizaynni muvaffaqiyatiga erishish garovidi


















### ornamentini hosil qilish bosqichlari
















Milliy naqsh ornamentini kodlastirish bosqichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

**Jadval 1.**
















**Milliy naqsh ornamentini klassifikაციyasi va kodlastirish**

II.01	II.02	II.03	II.04	II.05
bodom(mindal')	qushbodom	qo`shbodom xazonok	bodomi na`lalnok	bodomi xazonok
				
II.06	II.07	II.08	II.09	II.10
qo`shbodom -2	qo`shbodom -3	qo`shbodom xazonok-2	bodomi xazonok-2	bodom-2
				
II.11	II.12	II.13	II.14	II.15
bodom -3	bodom-4	anor-gul	turunj	turunji xazonak
				









II.16	II.17	II.18	II.19	II.20
runji nalnok	anor-gul 2	anor-gul 3	turunj-2	turunji xazonok

				
П.21	П.22	П.23	П.24	П.25
turunji	Tojigul xazonok-2	ka`bagul	ka`bagul-2	ka`bagul-3
				
П.26	П.27	П.28	П.29	П.30
tojigul-2	ka`bagul-54	ka`bagul-5	tojigul-3	tojigul-4
				

П.31	П.32	П.33	П.34	П.35
madoxil	chor madoxili durun-badurun	madoxil -2	madoxil -3	madoxili durun- badurun

				
П.36	П.37	П.38	П.39	П.40
madoxil -4	chor madoxili durun-badurun - 2	madoxil-2	madoxil -5	madoxil -6
				
П.41	П.42	П.43	П.44	П.45
chor madoxili durun-badurun - 3	chor madoxil	bargi majnunbed	majnunbed	bargi shulluki
				

П.46	П.47	П.48	П.49	П.50
bargi shulluki	bargi majnunbed	bargi majnunbed -2	bargi majnunbed -3	shulluk

				
П.51	П.52	П.53		
bargi shulluki -2	bargi shulluki -3	shulluki -2		
				



## XULOSA

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda mamlakat hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishga, ayniqsa kelajak avlodni milliy mustaqillik mafkura ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim olayotgan yoshlar Respublikamizning kelajagidir. Ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tayyorlash ta'lim-tarbiya muasasalarining asosiy vazifalaridir. Ular uchun yuksak malakali o'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish esa kadrlar tayyorlash sohasidagi ustivor vazifalardan sanaladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Buyuk keajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolisida shunday deb ta'kidlagan edilar: «Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql idrokini o'stirish ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishini taqozo etadi». Shuning uchun ham o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar o'ta murakkab, ma'suliyatli va ayni paytda sharaflidir. Rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonimizda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari kabi ta'lim sohasida ham ilg'or texnologiyalarni joriy etishga va shu orqali ta'lim mazmunini jaxon andozalari darajasiga olib chiqish barasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu kurs ishini yozish jaryonida shunga amin bo'ldimki bizning uzoq o'tmishimiz davomda san'atimiz va madaniyatimiz sayqalanib kelgan. Bugungi kunimizga qadar davom etmoqda. Zamonavim matolarimizdagi bejirim naqsh va bezaklar uzoq tarixga ega. Yozma manbalardan bizga ma'lum bo'ldiki har bir detal ma'lum bir ma'noga ega. Milliy matolarimiz va liboslarimiz butun dunyoda tanilgan, buyuk ipak yo'li orqali yaqin va uzoq o'rta sharq mamlakatlarigacha yetib borgan. Xalqaro festevallarda alhida o'ringa ega. Bugungi tinch va farovon hayotimizda san'at va madaniyat rivoji yanada tezlashdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. .” Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch. ”I.A.Karimov.Toshkent 2008
2. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo’lini izchil davom ettirish taraqqiyotimizning muhim omilidir. - T.:2010
3. Q.M.Abdullayeva,N.S.Gaipova,M.A.Gafurova ”Tikuv buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash. ”Toshkent-“Noshir” -2010
4. X.N.Komilova ,N.K.Xamroyeva “Kiyim loyihalash asoslari”Toshkent 2005
5. T.M.Poshshaxo’jayeva ,Sh.A.Abdurahmonova.”Xizmat ko’rsatish mehnati”
6. N.Norqulov”Oz-oz o’rganib dono bo’lur” hikmatlar to’plami.
7. A.P.Rogova ”Erkaklar va bolalar ustki kiyimini loyihalash asoslari”

# Mundarija

Kirish.....	1
Asosiy qism.	
1.O`rta Osiyo antik davrda milliy an`analar, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va estetik shakllari.....	4
2.O`zbek kashtachiligi tarixi, naqsh turlari va milliy naqshlarning ramziy ma`nosi.....	22
3.O`rata Osiyo antik davrida zardo`zlikdagi milliy ornamentlar va ularning zamonaviy ko`ylakda qo`llanishi.....	25
4. Xulosa.....	35
5. Foydalani gan adabiyotlar.....	36